



ISSUES OF SPIRITUAL EDUCATION IN SUFIS (In the case of Karmana scholars)

Sardor Zokirovich Kuvonov

*Navoi State Pedagogical Institute
Navoi, Uzbekistan
E-mail: kuvonov2017@mail.ru*

ABOUT ARTICLE

Key words: Sufism, Yassaviya, Kubroviya and Khojagon-Naqshbandiya, Sheikh Khudoidad, Sufi, secularism, Sharia, Lamahot, tariqat, enlightenment, Spiritual education

Received: 08.12.23

Accepted: 10.12.23

Published: 12.12.23

Abstract: In this article, the importance of studying the heritage of Karman Sufi scholars, representatives of the Yassaviya (XII century), Kubroviya (XIII century) and Khojagan-Naqshbandiya (XII century) sects, which arose in Central Asia, and the history of Sufism are discussed. Conclusions about the importance of Sufism in the development of social etiquette norms in today's society were made and revealed on the basis of scientific literature.

TASAVVUF TARIQATLARIDA MA'NAVIY TARBIYA MASALALARI (Karmanalik allomalar misolida)

Sardor Zokirovich Quvonov

*Navoiy Davlat Pedagogika instituti
Navoiy, O'zbekiston
E-mail: quvonov2017@mail.ru*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tasavvuf, Yassaviya, Kubroviya va Xojagon-naqshbandiya, Shayx Xudoydod, So'fiy, tarkidunyolik, shariat, Lamahot, tariqat, ma'rifat, Ma'naviy tarbiya

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Yassaviya (XII asr), kubroviya (XIII asr) va xojagon-naqshbandiya (XII asr) tariqatlari vakillari Karmanalik tasavvuf allomalar merosini o'rganishning bugungi kundagi ahamiyati hamda tasavvuf tarixi haqida so'z boradi. Tasavvufning bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy odob normalarin rivojlantiruvchi tomonlari ahamiyati haqida xulosalar qilingan hamda ilmiy adabiyotlar asosida ochib berilgan.

ВОПРОСЫ ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СУФИЯХ (В случае ученых Кармана)

Сардор Зокирович Кувонов

Навоийский государственный педагогический институт

Навоий, Узбекистан

E-mail: kuvonov2017@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Суфизм, Яссавия, Кубровия и Ходжагон-Накшбандия, Шейх Худоидад, Суфий, светскость, Шариат, Ламахот, Тарикат, просвещение, Духовное образование

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность изучения наследия Карман-суфийских ученых, представителей сект Яссавия (XII век), Кубровия (XIII век) и Ходжагон-Накшбандия (XII век), возникших в Средней Азии, и обсуждается история суфизма. На основе научной литературы сделаны и выявлены выводы о значении суфизма в развитии норм социального этикета в современном обществе.

KIRISH

E’tiqod va din ijtimoiy hodisa sifatida tarixdan inson, jamiyat va davlat hayotida muhum o’ringa ega hodisa sifatida o‘z tasirni ko‘rsatib kelgan. Islom dinining ajralmas qismi sanalgan tasavvuf ta’limoti jamiyat hayotida dinni mustahkamlash, targ‘ib etish, islomiy ilmlarni rivojlantirishda o‘ziga xos mavqeiga ega bo‘ldi. XVI asrga kelib, tasavvuf ta’limoti butun islom olamida, ayniqsa, Markaziy Osiyoda yuksak darajada rivojlandi va mamlakat ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan Yassaviya (XII asr), kubroviya (XIII asr) va xojagon-naqshbandiya (XII asr) tariqatlari vakillari ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etib xalqning, millatning ma’naviy qiyofasining shakllanishining asosi bo‘lib keldi. Bu tariqatlar o‘z taraqqiyoti davomida mahalliy urf-odat va madaniyatga islomiy an’analarni moslashtirish hamda siyosiy hayotda yetakchilik qilishga intilganliklari bilan ajralib turishlarini alohida qayd etib o‘tish lozim.

ASOSIY QISM

Tasavvuf uzoq asrlar davomida xalq ma’naviy tarbiyasining darajasini oshirish uchun xizmat qilib kelgan. Insonning ruhiy-ahloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borishi bu ta’limotning asosiy g‘oyasidir. Shu bois tasavvuf o‘zida insonparvarlik g‘oyalarini jamlagan holda haqiqat talabida yurgan odamlar qalbiga yo‘l topdi, odamlarning poklik, abadiy hayot, ko‘ngil hurriyati haqidagi orzularini ifodalab keldi. Xalqimiz so‘fiy darveshlarga hurmat-ehtirom orqali Alloh taologa, uning insonni ulug‘lagan qudrati va fayzu futuhiga e’tiqodlarini izhor etganlar. Shayxlarning karomatlari, so‘zlari va siyratu suratlari yuksak ahloq va ilohiy muqaddaslik namunasi sifatida qabul qilingan. Tasavvuf Shayxlari xalqning ma’naviy va ruhiy

madadkori sifatida maydonga chiqib, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotni rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan. Ushbu ta'limotni tarixiy nuqtai nazardan o'rghanish, mashhur Shayxlari hayoti va faoliyatini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgacha mavjud bo'lgan nazariy qarashlarning o'zi ham Shayxlar haqidagi xotiralar, rivoyat va hikoyalar asosida umumlashtirilgan.

O'rta Osiyo jamiyatida tasavvuf tariqatlari o'ziga xos mafkuraviy omil sifatida namoyon bo'lib, an'ana va udumlargacha kuchli ta'sir o'tkazib kelgan. Shu bilan birga bu ta'limot o'ta murakkab va ko'pqirrali bo'lib, turli davrlar ijtimoiy-siyosiy qarashlar natijasida ma'lum bir o'zgarishlarga uchragan.

Tasavvufning kelib chiqishi haqida turli qarashlar mavjud. Xususan, Usmon Turar tadqiqotlarida, tasavvufning kelib chiqishi tarixi va tasavvuf ahliga nima uchun "so'fiy" deb nom berilganligi to'g'risidagi turli xil qarashlar izohlab beriladi[1]. Ingliz sharqshunos Martin Lings esa "Tasavvuf nima?", "So'fiylar nimaga e'tiqod qilishadi yoki ishonishadi?", "So'fiylarga nima kerak va nima ish qilishadi?" degan savollarga javob topishga harakat qiladi va "Tasavvuf bu-Oollohga o'zini topshirish va e'tiqod dengiziga g'arq bo'lishdir" [2]- deb ta'rif beradi.

N.Komilovning ta'kidlashicha, tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lib, dastlab zohidlik (tarkidunyolik, taqvodor) ko'rinishiga ega bo'lgan[3]. Xususan, Muhammad (s.a.v) vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz beradi va xalifa Usmon (646-656) zamонига kelib, boylikka ruju qo'yish avj oladi. Ummaviy xalifaligi davriga kelib esa, saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina toplashga intilish kuchayadi. Ya'ni, bu hol diniy farzlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, boyliklardan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'ladi. Ular orasida hadis to'plovchi muhaddislar, ilgaridan qashshoq bo'lib, uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan sahabalar ham bor edi. Bularning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga otlangan bo'lsalar, ikkinchi qismi esa, qanoat va zuhdni ("zohid" so'zidan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va sarvatdorlar, boylar ahloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etib, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashib, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullandilar. Tasavvuf dastlab VIII asrda Iroqda, Kufa, Bag'dod, Basra, Misr kabi islom dini keng tarqalgan hududlarda paydo bo'ldi va XI-XII asrlarga kelib Markaziy Osiyoda mustaqil Yassaviya, kubraviya, xojagon-naqshbandiya tariqatlari vujudga keldi [4]. Tasavvuf din va e'tiqoddagi adashishlarni oldini olish haqiqiy e'tiqod bilan soxta davat va targ'iblarni farqlashdagi eng muhum hodisa bo'lib xizmat qildi.

Markaziy Osiyo tasavvuf ta'limoti bevosita mashhur mutasavvuf Shayx Xoja Yusuf Hamadoniy (1048–1141) nomi bilan bog'liq. Uning shogirdlari Xoja Ahmad Yassaviy va Abduxoliq G'ijduvoniy (vafoti 1179)lar keyinchalik ikki mustaqil tariqat: Yassaviya-jahriya va

xojagon – naqshbandiya tariqatlariga asos soldi. Xorazmda esa “Valiytarosh” unvoni bilan mashhur bo‘lgan Najmuddin Kubro (1145-1221)ning mustaqil ravishda kubroviya tariqati paydo bo‘ldi. [5] Shayx Najmuddin Kubro va kubroviyya tariqati g‘oyalari, mohiyati xususida Z.Ishoqovaning tadqiqotlaridan batafsил ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. [6]

Ushbu tariqatlar Markaziy Osiyoda keng tarqaldi va mustahkam maqomga ega bo‘ldi. Bundan tashqari qodiriya tariqatiga mansub Shayxlar ham Markaziy Osiyoda faoliyat yuritganligiga oid ma’lumotlar tasavvuf tariqatlariga bag‘ishlangan ko‘plab olimlarning tadqiqotlari va asarlarida aytib o‘tiladi. [7] Bu so‘fiylik tariqatiga XII asrda Iroqda Abdulqodir Giloniy (1077-1166) tomonidan asos solingan bo‘lib, ushbu tariqatga ko‘ra murshidlari uchun majburiy hisoblangan alohida yo‘l belgilanmagan. Qarashlari jihatdan sunniylikka mansub va ular oyat hamda suralarning o‘qilish tartibi, zikrlar adadi, pиру murshidga qaratilgan madhiyalardan iborat.

Fikr yuritilayotgan mavzu bevosita Yassaviya tariqatiga mansub karmanalik Shayxlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lganligi bois, asosiy e’tibor ushbu tariqatga qaratildi. Ma’lumki Yassaviya tariqati murshidlari barcha tariqatlarga xos umumiyligini maqom (daraja)larni (shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat) bosib o‘tish bilan birgalikda o‘ziga xos qonun-qoidalarga ham amal qilgan. Ayniqsa, ushbu tariqat amaliyotida kalima va duolarni baland ovozda, ya’ni jahriy uslubda aytish muhim o‘rin tutgan. Shuning uchun bu ta’limot “Yassaviya-jahriya” deb ataladi.

Boshqa tariqatlarda bo‘lgani kabi, Yassaviya tariqatida ham uning asoslarini ishlab chiqish, pir-murshidlik vazifalarini belgilash hamda ilohiy haqiqatlarni el orasida yoyish maqsadida tariqat peshvolari tomonidan bir qancha risola va tazkiralar yozildi. Ana shunday nodir manbalardan biri “Lamahot min nafahot ul-quds” (Muqaddas hushbo‘yliklardan lahzalar) asari bo‘lib, uning bir qancha qo‘lyozma nusxalari hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. [8]

Ushbu asarning ilmiy qiymati shundaki, asar karmanalik Yassaviy Shayxlarining hayoti va faoliyati to‘g‘risida keng va batafsил ma’lumot beruvchi asosiy manba bo‘lib, unda Qosim Shayx Azizon hamda Shayx Xudoydodning avlodlari, hayoti va faoliyati bilan bog‘liq boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar aks ettirilgan. Asar muallifi Shayx Xudoydodning yaqin xalifalaridan biri bo‘lib, unga qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langani uchun ham bu manbani Shayx Xudoydod hayoti va faoliyati to‘g‘risida ishonchli manba deb aytal olamiz. Shuningdek, Sharafuddin Roqimiyning “Tarixi tom” asarida ham bu manbaning ishonchli ekanligini ta’kidlab: “Olim Shayx (quddisa sirruhu) o‘z tasniflari “Kitobi lamahot”da ul zot (Shayx Xudoydod) maqomatlarini to‘g‘ri yozganlar”, deb aytib o‘tadi. [9]

Asar keng ilmiy jamoatchilik orasida qisqacha “Lamahot” degan nom bilan mashhur. Manba taniqli Yassaviya Shayxlaridan biri Muhammad Olim Shayx Azizon ibn Mo‘min Shayx ibn Darvesh Shayx Azizon qalamiga mansubdir.

Asarda tasavvufning asosiy tushuncha va shartlari bo‘lgan faqr, tavakkul, tafakkur, irodat, futuvvat, ishq, tasfiya, zikr, riyozat, ilmi laduniy, fano, tavhid, baqo kabi tushunchalar keng talqin qilinib, tariqat pirlarining fikrlaridan iqtiboslar keltiradi.

XULOSA

Xulosa Markaziy Osiyo tarixidagi har uchala mashhur tariqatning kelib chiqishi tarixan, sufiyлari targ‘ib qilgan ta’limotlar, tarixda insonni o‘zligini anglashda to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatgan bo‘lsa bugun ham xuddi shunday bu ta’limotlarga inson, jamiyat va davlat hayotida ma’naviy tarbiyaga erishishda ayni ehtiyoj borligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Bugunda inson va jamiyat hayotidagi ma’naviy tarbiya borasida Yassaviy tariqatida ibratni, Naqishbandiya tariqatilarini targ‘ib qilgan sufylar hayotida esa marhamatning yaqqol namunasini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Qosim Shayx Azizon hamda Shayx Xudoydodning ma’naviy meroslarida jamiyat hayotida eng muhum sanalgan ijtimoiy odob masalalariga ham katta e’tibor bilan qaraldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Усмон Турап. Тасаввуф тарихи. Т.: Истиқлол, 1999.
2. Martin Lings. What is sufism? Pakistan, Lahore. 1999.
3. Комилов Н. Тасаввуф. Т.: Мовароуннаҳр, 2009.
4. О.Усмон. Бухорои шарифнинг ётти пири. – Т.: Тош ДШИ нашриёти, 2003.
5. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Таржимон ва нашрга тайёрловчилар: И.Ҳаққул ва А.Бектош. Т.: Мовароуннаҳр, 2004.
6. Исҳоқова З. Шайх Нажмиддин Кубро. Т.: Ўзбекистон, 2013. 136 Б.; Яна қаранг: Исҳоқова З. Тасаввуф таълимотида валийлик тушунчасининг диний-фалсафий талқини(Алишер Навоийнинг “Насойим ул-муҳабbat” асари асосида). Фал.фан.ном. ...автореф. Т.: 2007.
7. Остонақулов И. Авлиёлар Султони, Туронлик валийлар. Т.: Янги аср авлоди, 2004
8. Муҳаммад Сиддик Рушдий “Тазкирату-л-авлиё” асарининг шарқ агиографик манбаларини ўрганишдаги аҳамияти. Дисс. автореф. Тарих фан. док. Т.: 2010.
9. Муҳаммад ал-Олим ас-Содиқ ал-Алавий-Олим Шайх. (لمحات من نفحات القدس) Ламахот мин нафаҳот ул-кудс. ЎзФА Шарқунослик Институти қўлёзмаси. И nv.№ 495, 2671.
10. Шарафуддин Роқимиј. Тарихи томм. Т.: Маънавият, 1998.
11. Кандахаров, А., & Бабаярова, Ш. (2023). БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. *Ижтимоий-*

гуманитар ғанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(10).

12. Satorov, K., & Khasanovich, K. A. (2023). MYSTIC SECRETS IN TURKISTAN: YASSAVIYA, KUBROVIYA AND NAQSHBANDIYA. *Open Access Repository*, 4(3), 1582-1590.
13. Qandaxarov, A. (2023, January). O'ZBEKİSTONDA KORRUPSIYAGA QARŞI KURASHGA OID AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 5, pp. 139-144).
14. Khasanovich, K. A. (2022). SOCIO-POLITICAL PROCESSES IN THE BUKHARA KHANATE IN THE XVI CENTURY: RELATIONS OF RELIGION AND STATE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
15. Kandakharov, A. K. (2023). THE ROLE OF PILGRIMS OF NAVOI REGION IN THE DEVELOPMENT OF INTERNAL TOURISM. *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 3(06), 76-83.